
KO'RIK-TANLOV O'TKAZILDI

Rishton tumani maktabgacha ta'lim bo'limi tasarrufidagi davlat maktabgacha ta'lim tashkilotlari tarbiyachilari o'rtasida «Yilning yeng yaxshi tarbiyachisi-2022» kasbiy ko'rik-tanlovi bo'lib o'tdi. Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida faoliyat olib borayotgan yuqori malakali tarbiyachilarni aniqlash va rag'batlantirish, ularni pedagogik mahorati va ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish, ijodkorlik muhitini yaratish maqsadida tashkil etilgan ushbu ko'rik-tanlov beshta nominiysi bo'yicha o'tkazildi. Tanlov natijasiga ko'ra, "Eng yaxshi metodist tarbiyachi" 36-DMTT tarbiyachisi Marg'uba Mamataipova, "Eng yaxshi kreativ tarbiyachi" 19-DMTT tarbiyachisi Ma'mura Sodiqova, «Innovatsion va axborot texnologiyalarni qo'llaydigan eng yaxshi tarbiyachi» 1-DMTT tarbiyachisi Madina Nazirova, «Eng yaxshi loyiha muallifi» 30-DMTT tarbiyachisi Surayyo Muhammedova, «Mohir qo'llar ustasi» 26-DMTT tarbiyachisi Gulhayo Mamajonova 1-o'rinni egalladilar. G'oliblar tuman MTBning esdidik sovg'alari va faxriy yorliqlar bilan taqdirladilar.

2022-09-19 18:10:11